

**TIJORAT BANKLARIDA MAJBURIYATLAR HISOBI VA  
AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI  
(ATB BIZNESNI RIVOJLANTIRISH BANKI MISOLIDA)**

*To'xtayev Furqat Boxodirovich*

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada banklar faoliyatida muhim o'rin tutuvchi majburiyatlar hisobi va ularni audit qilish tizimining nazariy va amaliy jihatlari o'rganilgan. Unda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, majburiyatlar tuzilmasini tahlil qilish, buxgalteriya hisobi standartlariga mos ravishda hisob yuritishni tashkil etish va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Ishda O'zbekiston tijorat banklari bo'yicha statistik ma'lumotlar asosida majburiyatlar tarkibi va dinamikasining tahlili o'tkazilib, ularning to'g'ri va shaffof hisobini yuritish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Shuningdek, audit monitoring qilishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar va baholash mexanizmlari ishlab chiqilgan bo'lib, ilmiy va amaliy nuqtayi nazardan dolzarblikka ega.

**Kalit so'zlar:** bank majburiyatlari, buxgalteriya hisobi, audit, moliyaviy hisobot, moliyaviy ko'rsatkichlar, majburiyatlar tahlili, IFRS, Basel me'yorlari, audit monitoringi, moliyaviy barqarorlik, ATB Biznesni Rivojlantish Banki .

#### **ANNOTATION**

This article the theoretical and practical aspects of accounting and auditing of bank liabilities, which play a crucial role in the financial operations of commercial banks. It focuses on ensuring financial stability, analyzing the structure of liabilities, organizing accounting in accordance with international standards, and improving control and audit mechanisms.

Using statistical data from commercial banks in Uzbekistan, the dynamics and structure of liabilities have been analyzed. The paper presents recommendations for improving transparency and accuracy in liability accounting and audit processes. A system of monitoring indicators has also been developed to support financial control and internal auditing practices.

**Keywords:** bank liabilities, accounting, audit, financial reporting, financial indicators, liability analysis, IFRS, Basel standards, audit monitoring, financial stability ,BRB.

#### **Kirish**

Bank tizimining samarali faoliyati iqtisodiyotni moliyalashtirish, to'lovlar aylanishi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu tizimda majburiyatlarning hisobga olinishi va ularning auditdan o'tkazilishi bank

ishonchliligi va shaffofligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, banklar balansidagi majburiyatlar — jumladan, jamoatchilikdan jalb etilgan depozitlar, boshqa moliya institutlari oldidagi qarzarlar va bozor instrumentlari orqali olingan mablag‘lar — tahliliy va regulyativ nuqtai nazardan to‘g‘ri e‘tiborni talab qiladi .

Oxirgi yillarda O‘zbekiston bank sektorida o‘zgarishlar chuqurlashdi: banklarning transformatsiyasi, raqamli moliyaviy xizmatlar kengayishi va xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashuvi hisob va audit tizimlarini tubdan takomillashtirish zaruratini yuzaga chiqardi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5992-son qarori, 2020). Ushbu sharoitda bank majburiyatlarini hisobga olish tizimining zamonaviy standartlarga moslashtirilishi, audit amaliyotining chuqurlashtirilgan tahlilga asoslanishi zaruriy holga aylandi (Bank for International Settlements, 2021).

Bundan tashqari, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, bank majburiyatlarini noto‘g‘ri aks ettirish nafaqat moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini buzadi, balki regulyator nazorati, likvidlik boshqaruvi va risklarni baholash tizimiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi .Shu sababli, bu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

### **Mavzuning dolzarbligi**

Ushbu tadqiqotning umumiy maqsadi — tijorat banklarining majburiyatlarini hisobga olish va audit qilish amaliyotini tahlil qilish, mavjud kamchiliklarni aniqlash hamda ilg‘or xalqaro tajriba asosida ularni takomillashtirish bo‘yicha nazariy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqot mazmunidan kelib chiqib, quyidagi ilmiy vazifalar belgilandi:

1. **Bank majburiyatlarining iqtisodiy mohiyatini ochib berish**, ularning turlari va tarkibiy tuzilmasini xalqaro moliyaviy standartlar asosida klassifikatsiyalash (Brown & Ilyasova, 2020);
2. **Amaldagi buxgalteriya hisob siyosati asosida majburiyatlarning aks ettirilish holatini tahlil qilish**, ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirishda yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash (Mirzayev & Sobirov, 2023);
3. **Bank majburiyatlari auditining metodik jihatlarini o‘rganish**, audit yondashuvlarining xalqaro tajriba bilan qanchalik uyg‘unlashganligini baholash;
4. **O‘zbekiston tijorat banklari misolida majburiyatlar hisobi va auditini amaliy tahlil qilish**, moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida banklar hisobotlarining ishonchliligini baholash;

**Xalqaro tajriba asosida bank majburiyatlari hisobi va auditini takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlash**, ularni milliy amaliyotga moslashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

## **METODOLOGIYA**

Tadqiqotda bank majburiyatlari hisobi va auditi tizimini o‘rganish ular hisobini takomillashtirish ilmiy asoslarini chuqur o‘rganish maqsad qilingan. Ushbu vazifani amalga oshirishda aralash tadqiqot dizayni (mixed-method design) qo‘llanilishi rejalashtirilmoqda. Mazkur yondashuv nazariy va empirik tadqiqot usullarini uyg‘unlashtirgan holda, aktivlardan foydalanish samaradorligini kompleks tahlil qilish imkonini beradi. Bu uslub xalqaro hamda mahalliy tajribalarda o‘zining yuqori natijadorligini ko‘rsatgan.

## **ADABIYOTLAR SHARHI**

Banklar moliyaviy vositachilar sifatida aktivlar va majburiyatlar balansini yuritadilar. Ayniqsa, bank majburiyatlari (depozitlar, olinma kreditlar va boshqalar) ulkan ahamiyatga ega bo‘lib, ular orqali banklar mablag‘ jalb qiladi va iqtisodiyotga kredit ajratadi. Shu bois bank majburiyatlarini to‘g‘ri buxgalteriya hisobida aks ettirish va ularning ishonchli auditini ta‘minlash moliyaviy tizim barqarorligi hamda manfaatdor tomonlar ishonchi uchun muhimdir. Bank buxgalteriya hisobining nazariy asoslari va audit konsepsiyalari rivoji davomida klassik tamoyillar ham, zamonaviy yondashuvlar ham shakllangan. Ushbu sharhda bank majburiyatlari hisobi va auditini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi. Sharh davomida umumiy hisob va audit nazariyalari, xalqaro standartlar (IFRS – Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, Basel me‘yorlari) hamda klassik va zamonaviy manbalardagi asosiy g‘oyalar chuqur tahlil asosida yoritiladi.

Bank majburiyatlarining mohiyati shundan iboratki, ular bankning yuridik va jismoniy shaxslar oldidagi majburiy to‘lovlarini ifodalaydi. Bunga mijoz depozitlari, boshqa banklardan olingan kreditlar, emitatsiya qilingan obligatsiyalar, hisob-kitob bo‘yicha kreditorlik qarzlari va boshqa qarzdorliklar kiradi. Nazariy jihatdan, har bir majburiyat – bu bank uchun kelgusida naqd pul yoki boshqa aktivni berish majburiyatini keltirib chiqaruvchi xo‘jalik haqdorligidir. Xalqaro buxgalteriya standartlari konseptual asosida majburiyat tushunchasi shunday tariflanadi: “Majburiyat – bu hozirgi vaqtdagi majburiyat bo‘lib, u o‘tgan voqealar natijasida vujudga kelgan va bajarilishi kelgusida iqtisodiy foyda beruvchi resurslarning chiqib ketishiga olib keladi” (IASB Kontseptual asos, 2018). Shu tariqa, nazariyada bank majburiyatlari aniq o‘lchov va e‘tirof etish mezonlariga ega bo‘lishi lozim.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Tijorat banklari balansi passivining asosiy ulushini majburiyatlar tashkil etib, ular 80–90%dan iborat bo‘ladi. Majburiyatlarni muddati va vujudga kelish manbasiga qarab barqaror va nobarqaror, ular uchun to‘lanadigan xarajatlar qiymatidan kelib chiqib, arzon va qimmat mablag‘larga ajratish mumkin.

Tijorat banklari passiv operatsiyalarining asosan to‘rtta shakli mavjud:

1. Qimmatbaho qog‘ozlarni emissiya qilish orqali resurs jalb qilish;
2. Foyda hisobidan har xil fondlar tashkil qilish yoki fondlar summasini oshirish;

3. Boshqa kreditorlarning mablag‘larini jalb qilish;

4. Depozit operatsiyalarni amalga oshirish.

Tijorat banklari passivlari manbasiga ko‘ra bankning o‘z mablag‘lari va jalb qilingan mablag‘lariga bo‘linadi. Yuqoridagi bank passiv operatsiyalarining dastlabki ikki shaklida bankning o‘z mablag‘lari shakllanadi, so‘nggi ikki shaklida esa jalb qilingan mablag‘lari vujudga keladi. Shuning uchun bank passivlarining hajmi bankning o‘z mablag‘lari va jalb qilingan mablag‘lari yig‘indisidan iborat hisoblanadi.

Banklarning o‘z mablag‘lari - bu bankka tegishli bo‘lgan mablag‘lar bo‘lib, ularga bank ustav kapitali, qo‘shimcha kapital, zahira kapitali, taqsimlanmagan foyda, kelgusi davr daromadlari, hisob-kitoblar tizimidagi o‘z mablag‘lar va nomoddiy aktivlar kiradi. Demak, bankning o‘z mablag‘lari deb, bankning tijorat faoliyatidagi moliyaviy barqarorligini ta‘minlash uchun hosil qilingan turli fondlar hamda o‘tgan va joriy yil faoliyatidan olingan daromadni tushinish kerak.

Tijorat banklari passivlarining ikkinchi guruhi – bu jalb qilingan mablag‘lardir. Bu mablag‘lar bank ta‘sischilariga tegishli emas, ular chetdan, ya‘ni bank mijozlaridan jalb qilinadi. Bank ishining xususiyati ham shundan iboratki, bank resurslarining asosiy qismi jalb qilingan mablag‘lardan iboratdir.

**O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining jami majburiyatlar tarkibi**

Ko‘rsatkichlar nomi	01.01.2023 y.		01.01.2024 y.		01.01.2025 y.	
	mlrd. so‘m	ulushi, foizda	mlrd. so‘m	ulushi, foizda	mlrd. so‘m	ulushi, foizda
Depozitlar	216 737,5	45,4	241 686,6	43,5	308 692,3	47,2
Markaziy bankning hisobvaraqlari	784,3	0,2	1 345,1	0,2	1 727,4	0,3
Boshqa banklarning mablag‘lari - rezidentlar	18 780,8	3,9	24 577,0	4,4	25 007,9	3,8
Boshqa banklarning mablag‘lari - norezidentlar	22 798,5	4,8	20 073,5	3,6	16 428,5	2,5
Olingan kreditlar va lizing	186 614,5	39,1	224 350,7	40,4	234 667,5	35,9
Chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar	10 915,2	2,3	13 160,6	2,4	29 094,9	4,4
Subordinar qarzlar	6 619,3	1,4	9 653,0	1,7	11 298,5	1,7
To‘lanishi lozim bo‘lgan hisoblangan foizlar	5 487,1	1,1	8 106,5	1,5	9 823,4	1,5
Boshqa majburiyatlar	8 443,6	1,8	12 124,9	2,2	17 797,6	2,7

So‘nggi yillarda O‘zbekiston tijorat banklari moliyaviy resurslar bazasini kengaytirish orqali faoliyat hajmini sezilarli darajada oshirib bormoqda. 2023-yil 1-yanvardan 2025-yil 1-yanvarga qadar banklarning umumiy majburiyatlari 477,2 trillion so‘mdan 654,5 trillion so‘mga yetib, 37,2 foiz o‘shish kuzatildi. Ushbu o‘shish banklar faoliyatida jalb qilinayotgan moliyaviy manbalar tarkibida ham sifat, ham miqdor jihatidan o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi.

Majburiyatlarning asosiy qismini depozit mablag‘lari tashkil etmoqda. 2023-yilda ularning ulushi 45,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib bu ko‘rsatkich 47,2 foizga yetgan. Bu banklar uchun eng barqaror va ishonchli moliyalashtirish manbasi bo‘lib qolmoqda. Aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tijorat banklariga bo‘lgan ishonch darajasi ortib borayotgani ushbu raqamlar orqali yaqqol ko‘rinmoqda.

Olingan kreditlar va lizing operatsiyalari bo‘yicha ham hajm jihatidan ijobiy o‘shish kuzatilgan: 186,6 trln so‘mdan 234,7 trln so‘mga. Biroq ulush jihatidan pasayish (39,1% → 35,9%) banklarning moliyaviy strategiyasida tashqi qarz mablag‘lariga tayanish o‘rniga, ichki manbalarni afzal ko‘rish tendensiyasi ortib borayotganini ko‘rsatadi.

**O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi depozitlar qoldig‘i, turlari bo‘yicha (mlrd. so‘mda)**

Sana	Jami	shu jumladan:		
		talab qilib olinguncha	jamg‘arma	muddatli
1	2	3	4	5
01.01.2023 y.	216 737,5	100 683,3	23 289,8	92 764,5
01.01.2024 y.	241 686,6	88 036,0	24 051,2	129 599,4
01.01.2025 y.	308 692,3	104 887,5	29 247,9	174 556,8

2023–2025-yillar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining depozitlar bo‘yicha umumiy hajmi barqaror o‘shishda davom etdi. 2023-yil boshida jami depozitlar hajmi 216,7 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yil boshiga kelib bu ko‘rsatkich 308,7 trillion so‘mga yetdi. Bu esa ikki yil ichida 92 trillion so‘mlik yoki 42,4 foizlik o‘shishni anglatadi. Depozitlar miqdorining o‘shishi bank tizimiga bo‘lgan ishonchning mustahkamlanayotgani, aholining va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bank xizmatlaridan foydalanish darajasi oshib borayotganini ko‘rsatadi. Ammo bu o‘shish faqat umumiy miqdorda emas, balki depozit turlari bo‘yicha tarkibda ham sezilarli siljishlarga sabab bo‘ldi.

Talab qilib olinguncha depozitlar hajmi 2023-yildagi 100,7 trillion so‘mdan 2024-yilda 88,0 trillion so‘mga tushgan bo‘lsa-da, 2025-yilga kelib yana tiklanib,

104,9 trillion so‘mga yetdi. Bu turdagi omonatlar mijozlar tomonidan istalgan vaqtda yechib olinadigan mablag‘lar bo‘lib, ular asosan operatsion xarakterdagi vositalardir. Bunday depozitlarning o‘zgaruvchanligi iqtisodiy faollik, likvidlik talabi va to‘lov aylanmasi bilan chambarchas bog‘liq.

2023–2025-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi depozitlar qoldig‘i hajmi va tarkibida muhim va izchil o‘zgarishlar yuz berdi. Jami depozitlar hajmi 216,7 trillion so‘mdan 308,7 trillion so‘mga oshib, 42,4 foizlik o‘shish kuzatildi.

“Biznesni rivojlantirish banki” ATBda prosent xavfi bo‘yicha moliyaviy aktiv va majburiyatlarning taqsimoti (2024 yil, mlrd so‘m)

Ko‘rsatkichlar	Talab qilinguncha va 1 oygacha	1-6 oy	6-12 oy	1-3 yil	3-5 yil	5 yildan ortiq	Jami
Aktivlar							
Na’d pullar va ularga tenglashtirilgan aktivlar	6 965 894	-	-	-	-	-	6 965 894
Boshqa banklardagi mablag‘lar	290 613	127 302	211 455	146 314	957 215	45 808	1 778 707
Mijozlarga berilgan kreditlar	3 447 964	25 049 841	5 815 234	9 432 874	6 112 404	8 149 921	58 008 238
Boshqa moliyaviy aktivlar	-	-	51 499	-	-	-	51 499
Investisiya qimmatli qog‘ozlari	-	1 101 353	691 278	207 817	-	34 855	2 093 415
Jami moliyaviy aktivlar	10 762 583	26 329 995	6 771 967	9 787 005	7 069 619	8 230 584	68 897 753
Majburiyatlar							
Boshqa banklarga to‘lovlar	2 597 424	2 732 125	21 495	359 007	38 900	-	5 818 951
Mijozlar mablag‘lari	6 678 347	1 940 232	1 710 912	1 901 199	124 813	1 973 179	14 328 682
Qimmatli qog‘ozlar	-	1 276 000	3 694 366	-	-	-	4 970 366
Qarz vositalari	1 333 895	264 325	3 083 158	3 183 122	1 918 841	3 906 604	13 689 945
Subordinasiyangan qarz	-	252 844	-	-	264 382	1 172 216	1 696 854
Jami moliyaviy majburiyatlar	10 610 626	30 409 316	8 579 931	5 449 780	2 346 936	7 051 999	64 448 588

Sof foiz sezgirlik bo'yicha farq	151 957	(4 079 321)	(1 861 964)	4 337 225	4 722 683	1 178 585	4 449 165
----------------------------------	---------	-------------	-------------	-----------	-----------	-----------	-----------

2024 yil 31 dekabr holatiga ATB“Biznesni rivojlantirish banki”ning foiz xavfiga nisbatan moliyaviy pozitsiyasi juda ehtiyotkor va strategik yondashuv asosida tashkil etilgan. Jadval tahlillari shuni ko‘rsatadiki, bank o‘zining aktiv va majburiyatlarini turli muddat diapazonlari bo‘yicha sinchiklab taqsimlagan - bu esa foiz stavkalaridagi o‘zgarishlar ta'siriga nisbatan barqarorlikni ta'minlaydigan muhim omil hisoblanadi. Joriy aktivlar ichidagi eng katta qism - bu mijozlarga berilgan kreditlar bo‘lib, ularning umumiy miqdori 58 trln so‘mdan oshgan va ular asosan “1-3 yil”, “3-5 yil” hamda “5 yildan ortiq” muddatlarga berilgan. Bu bankning uzoq muddatli strategik investisiya siyosatini aks ettiradi. Shu bilan birga, 6,9 trln so‘mlik naqd pul va ekvivalent aktivlar ham bankning yuqori likvidlik pozitsiyasiga ega ekanligini tasdiqlaydi. Investisiya qimmatli qog‘ozlari esa asosan “1-6 oy” va “6-12 oy” diapazonlarida joylashgan bo‘lib, ularning umumiy miqdori 2,1 trln so‘mni tashkil etadi. Bu, o‘z navbatida, foiz xavfini diversifikatsiya qilishda xizmat qiladi. Moliyaviy majburiyatlarning tahlilidan ko‘rinadiki, bankning eng yirik majburiyatlari - mijozlar mablag‘lari va qarz vositalaridir.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Mazkur tadqiqotning maqsadi – tijorat banklari, jumladan, ATB “Biznesni rivojlantirish banki” misolida bank majburiyatlari ularning hisobini yuritishning nazariy, metodologik va amaliy asoslarini aniqlash hamda majburiyatlar hisobi auditini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida majburiyatlarni hisoblashning xalqaro standartlarga (IFRS) mos ravishda yuritilishi zarurati ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinib, xalqaro standartlar va mahalliy normativ hujjatlar o‘rtasidagi tafovutlar keng yoritildi. Bu bilan mahalliy hisob siyosatlarini xalqaro standartlarga integratsiyalashuvi uchun ilmiy asos yaratildi. Bank auditida riskka asoslangan yondashuvning nazariy jihatdan asoslanishi va uning an'anaviy auditdan ustunliklari ochib berildi. Bu esa riskka asoslangan audit metodologiyasini mahalliy banklarda joriy qilish bo‘yicha ilmiy asos bo‘lib xizmat qila Bank tizimida majburiyatlar hisobini yuritish va audit qilish sohasidagi tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati quyidagi jihatlar bo‘yicha chuqur tahlil qilinadi:

Tadqiqotda bank majburiyatlarini hisobga olish jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun raqamli va avtomatlashtirilgan texnologiyalardan foydalanish zarurligi asoslangan. Bank tizimida majburiyatlar hisobini yuritish va audit qilish sohasidagi tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati quyidagi jihatlar bo‘yicha chuqur tahlil qilinadi:

• **Bank hisobotlari aniqligi va ishonchliligini oshirish.** Avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish hisob-kitoblarda inson omili sababli yuzaga keladigan xatoliklarni kamaytiradi, bu esa moliyaviy hisobotlarning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

• **Hisob-kitob tezligini oshirish.** Yagona raqamli platformalar orqali bank majburiyatlarini hisoblash va monitoring qilish jarayonlari tezlashadi, bu esa boshqaruv qarorlarini o'z vaqtida qabul qilish imkoniyatlarini oshiradi.

• **Xalqaro moliyaviy standartlarga (IFRS) o'tishni osonlashtirish.** Tadqiqotda asoslangan xalqaro standartlar asosida hisob yuritish usullari banklarga amaliy yordam sifatida xizmat qilib, xalqaro investorlarning e'tiborini jalb qilishga imkon beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Buxgalteriya hisobi: Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; — T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. 624 b.
2. Karaliyev T.M., Qurbonov R.B., Rustamov M.S. Banklarda buxgalteriya hisobi (Matn|: o'quv qo'llanma / T.M. Karaliyev, R.B. Qurbonov, M.S. Rustamov. - Toshkent: «ZEBO PRINT», 2021. - 344 b.
3. Z.A.Umarov. Banklarda buxgalteriya hisobi (darslik). --T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», nashriyoti 2021, 612 b.
4. Bank for International Settlements. (2021). *Basel III: Finalising post-crisis reforms*. Available at: <https://www.bis.org> [Accessed 15 Mar. 2025].
5. Brown, P. and Ilyasova, G. (2020). Liability Reporting in Banks: IFRS Perspective. *International Journal of Accounting*, 55(2), pp. 45–68.
6. Mishkin, F. S. (2020). *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. 12th ed. Pearson Education.
7. Hull, J. (2022). *Risk Management and Financial Institutions*. 5th ed. Wiley Finance.
8. <https://cbu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti
9. <https://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi
10. <https://stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Statistika agentlig
11. <https://audit.gov.uz> – O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi rasmiy sayti
12. <https://ifrs.org> – Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) rasmiy sayti